

QO'YCHILIK SOHASINING SHAKLLANISHI

Qosimov Abdisattor Choriyevich,

Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrası tadqiqotchisi,

abdisattorq@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada qo'ychilik sohasi, uning shakllanishi, qo'ychilikda chuqur iqtisodiy islohotlar amalga oshirilgani haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

Kalit so'zlar: qo'ychilik, mahsulot, qorako'l, bo'rdoqi, oqsil, mayin junli, mo'yna.

ABSTRACT

In this article, opinions were expressed about the field of sheep breeding, its formation, and the implementation of deep economic reforms in sheep breeding.

Key words: sheep farming, product, cow, cow, protein, soft wool, fur.

АННОТАЦИЯ

В данной статье были высказаны мнения о сфере овцеводства, ее становлении, проведении глубоких экономических реформ в овцеводстве.

Ключевые слова: овцеводство, продукция, каракул, корова, белок, мягкая шерсть, мех.

Kirish (Introduction). Qo'y xonakilashtirilgandan boshlab odamlar undan olinadigan xom ashyo va go'sht mahsulotlaridan foydalana boshladilar. Inson faoliyati natijasida kammahsul dag'al junli qo'ylar yaxshilangan va mahsuldorligi oshirilgan. Miloddan bir necha ming yil oldin Kichik Osiyoda birinchi mayin junli qo'ylar, O'rta Osiyoda esa qorako'l qo'y zotlari paydo bo'ldi. Qo'ychilik chorvachilikdagi mustaqil tarmoq sifatida, asosan, cho'l va dasht, tog'li hududlarda qo'ychi boylarning xususiy xo'jaliklarida olib borilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). 20-asrning 20-yillaridan boshlab O‘zbekistonda Qo‘ychilik ka alohida tarmoq sifatida e’tibor berila boshlandi. Yirik davlat va jamoa Qo‘ychilik xo‘jaliklari, keyinchalik ixtisoslashgan naslchilik yo‘nalishidagi xo‘jaliklar (naslchilik zavodlari) tashkil etildi. 30-yillardan jamoa va davlat xo‘jaliklari (kolxozlar va sovxozlar)da Qo‘ychilik fermalari tashkil etildi. Sobiq Ittifoqning boshqa hududlaridan mayin junli qo‘y (merinoslar) keltirildi. Mayin junli Qo‘ychilikni rivojlantirish, kammahsul qo‘ylarni mahsuldor qo‘y zotlari bilan chatishtirish, qo‘ylarni sun’iy urug‘lantirishning yangi usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish ishlari olib borildi, qo‘ylarni boqish va asrash sharoitlari yaxshilandi. Veterinariya xizmati ko‘rsatish tizimi tashkil etildi. Natijada podalarning zot tarkibi yaxshilandi, qo‘y tuyog‘i soni ko‘paydi, qo‘ylarning mahsuldorligi oshdi, Qo‘ychilikda mayin junli va o‘rtacha mayin junli qo‘ylar salmog‘i ortdi, bosh soni ko‘paydi. Respublikada 1923-yilda barcha zotdagi qo‘ylar bosh soni 3,1 mln. bo‘lsa, 80-yillar boshiga kelib, ularning soni 8,9 mln. boshga, shu jumladan, qorako‘l qo‘ylari 5,3 mln. boshga yetdi.

Natijalar (Results). O‘zbekistonda qo‘ylar, asosan, yaylovda boqiladi (ob-havo sharoiti noqulay hollarda qo‘shimcha oziqlantiriladi). Go‘sh-tga topshiriladigan qorako‘l qo‘ylarni yaxshi semirtirish uchun kuzda ularning suruvlari tuziladi. Bo‘rdoqiga boqiladigan qo‘ylarga shulxa, kunjara yoki tert beriladi. 70-80 kunda qo‘ylar yaxshi semiradi va go‘sh-tga topshiriladi. 90-yillar boshidan Qo‘ychilikda chuqur iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 15 martdagi “Respublika chorvachiligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq barcha jamoa xo‘jaligi Qo‘ychilik fermalari xususiylashtirildi va fermer xo‘jaliklari barpo etildi.

Muhokama (Discussion). Qo‘ychilikka ixtisoslashgan davlat xo‘jaliklari (z-dlari) jamoa (shirkat) xo‘jaliklariga aylantirildi. 1998-yil iyunda qorako‘lchilikda ishlab chiqarish va savdo masalalari bilan shug‘ullanadigan va respublikada barcha qorako‘lchilik shirkat xo‘jaliklarini va hududiy viloyat birlashmalarini o‘z ichiga olgan

“O‘zbek qorako‘li” kompaniyasi tashkil etildi. Respublika Qo‘ychilikda dag‘al jun va go‘sh-t-yog‘ beruvchi hisori va jaydari qo‘y zotlari asosiy o‘rinni egallaydi. Hisori qo‘ylar, asosan, tog‘ va tog‘oldi mintaqalarida (Surxondaryo, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlari) boqiladi (qarang Hisori qo‘y zoti). Xonadon xo‘jaliklarida boqiladigan jami qo‘ylarning deyarli yarmini jaydari qo‘ylar tashkil qiladi. Bu zotlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro va Navoiy viloyatlarida ko‘p tarqalgan. Yarim dag‘al jun olinadigan saraja, Oloy va Tojikiston qo‘y zotlari, asosan, Farg‘ona va Toshkent viloyatlaridagi tog‘, tog‘oldi yaylovlariga yaxshi moslashgan.

Qo‘ychilikka oid ilmiy tadqiqot ishlari Chorvachilik instituti, Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi institutida olib boriladi.

Qo‘ychilik jahondagi ko‘pgina mamlakatlarda rivojlangan. 2000-yilgi ma‘lumotlarga ko‘ra Dunyo bo‘yicha 1068669 ming bosh qo‘y boqildi, 497,6 mln. bosh qo‘y so‘yildi va 7,4 mln.tonna qo‘y go‘sh-ti ishlab chiqarildi.

Xulosa va takliflarni (Analysis and results). Jahon mamlakatlarida urchitilayotgan qo‘ylarning deyarli yarmi Avstraliya, Yangi Zelandiya, Hindiston, Turkiya, Janubiy Afrika Respublikasiga to‘g‘ri keladi. Qo‘ychilik mamlakat qishloq xo‘jaligida muhim o‘rinni egallaydi. Qo‘y jani xalq xo‘jaligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Qo‘y junidan gazmol, trikotaj buyumlar, gilam va h.k., terisidan po‘stin, mo‘ynasidan turli kiyimkechaklar tikiladi, go‘sh-ti oqsil va yogga boy to‘yimli mahsulot, sutidan pishloq, brinza va boshqa tayyorlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *Qo‘ylarni boqish uchun yangi boshlanuvchilar uchun qo‘llanma Qo‘y: yangi boshlanuvchilar uchun qo‘ylarni boqish uchun qo‘llanma.*
2. *Qishloq xo‘jaligi va uy xo‘jaligi kolleji. “Qo‘ylarni ishlab chiqarish va boshqarish” (PDF).*
3. *“Dehqon qo‘ylarining azoblari”. Hayvonlarga yordam. Olingan 2019-06-04. Frantsiya, N. P. ; va boshq. (1994).*
4. *“Qo‘zining quyruq bilan biriktirilishi: quyruq amputatsiyasining sog‘liq va mahsuldorlikka ta‘sirini nazorat ostida olib boriladigan o‘rganish”. Veterinariya. Rec. 134 (18): 463–467. doi:10.1136 / vr.134.18.463.*